

O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINING DEMOKRATIK JAMIYAT QURILISHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Murodaliyev Ibrohimjon Sodiqjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi

murodaliyevibrohimjon9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17773880>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi roli hamda farovon hayot shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Konstitutsiyaning davlat boshqaruvidagi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi funksiyalari o'rganilib, erkin va xavfsiz jamiyatni ta'minlashdagi asosiy vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Maqola O'zbekiston konstitusiyasi bilan bir qatorda jahondagi bir qator konstitutsiyalar solishtiriladi. Shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlar bilan bog'liqligi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari konstitutsiyaning huquqiy me'yor sifatida jamiyatda erkinlik va barqarorlikni ta'minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, huquqiy davlat, inson huquqlari, davlat boshqaruvi, huquqiy kafolat xalqaro huquq, xalqaro huquqiy hujjatlar, qonun ustuvorligi, fuqarolarning erkinliklari, sog'liqni saqlash, ta'lim.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN BUILDING A DEMOCRATIC SOCIETY

Abstract. This article analyzes the significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the life of society and the state, its role in protecting human rights and freedoms, and its impact on ensuring a prosperous way of life. The study examines the functions of the Constitution in state governance, as well as its social-economic and cultural dimensions, highlighting its importance as a key mechanism for maintaining a free and secure society. The article also compares the Constitution of Uzbekistan with several constitutions of other countries. In addition, the paper includes information on the relationship between the Constitution and international legal documents. The research findings confirm the crucial role of the Constitution as a legal norm in ensuring freedom and stability within society.

Keywords: Constitution of the Republic of Uzbekistan, rule of law, human rights, state governance, legal guarantees, international law, international legal documents, supremacy of law, civil liberties, healthcare, education.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ПОСТРОЕНИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается значение Конституции Республики Узбекистан в общественной и государственной жизни, её роль в обеспечении защиты прав и свобод человека, а также влияние на формирование благополучной жизни. Изучаются функции Конституции в системе государственного управления, а также её социально-экономические и культурные аспекты, раскрывающие её как важнейший инструмент обеспечения свободного и безопасного общества. В работе проводится сравнительный анализ Конституции Узбекистана с рядом конституций других

государств. Кроме того, статья содержит сведения о взаимосвязи Конституции с международными правовыми документами. Полученные результаты подтверждают ключевую роль Конституции как юридической нормы в обеспечении свободы и стабильности в обществе.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, правовое государство, права человека, государственное управление, правовые гарантии, международное право, международные правовые документы, верховенство закона, гражданские свободы, здравоохранение, образование.

I. KIRISH (Introduction)

Konstitutsiya zamonaviy davlatning asosiy huquqiy poydevori bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi, davlat hokimiyati tuzilmasi va uning vakolatlari chegaralarini belgilovchi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etuvchi oliy yuridik hujjat sifatida e'tirof etiladi. Insoniyat taraqqiyotida konstitutsiyalarning paydo bo'lishi davlat boshqaruvini huquqiy asosga o'tkazgan muhim bosqich bo'lib, u hokimiyatning shaffofligi, milliy hamjamiyatning o'ziga xosligi, markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi vakolalar, fuqarolarning qonun oldida tengligi hamda davlat siyosatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, konstitutsion tuzum mavjud bo'lgan jamiyatlarda siyosiy institutlar, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy rivojlanish, huquqiy ong va huquqiy madaniyat boshqa jamiyatlarga qaraganda barqarorroq shakllanadi.

II. Usullar (Methods)

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, "konstitutsiya" atamasi ilk bor Qadimgi Rim davlati qonunchiligida qo'llangan. Xususan Rim imperatorlarining farmonlari ham konstitutsiya deb yuritilgan. XVII–XVIII asrlarda fuqarolarning o'z erki, huquqi uchun kurashi nihoyatda kuchaygan. Aynan shu davrlarda, insonlarning huquq va erkinliklarini qonunlarda mustahkamlashga e'tibor qaratildi va bunday qonun Konstitutsiya deb atalgan. 1787-yilda qabul qilingan Aqsh konstitutsiyasi davlatning asosiy qonuni sifatida begilangan va uning muqaddimasida shunday deyilgan: Biz, Amerika Qo'shma Shtatlari xalqi, yaxshiroq birlikni yaratish, adolatni o'rnatish, ichki tinchlikni ta'minlash, umumiy mudofaani ko'zlash, umumiy farovonlikni ilgari surish va erkinlik ne'matlarni o'zimiz va kelajak avlodlarimiz uchun saqlash maqsadida, ushbu Konstitutsiyani Amerika Qo'shma Shtatlari uchun qabul qilamiz va o'rnatamiz¹.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixi va rivojlanishiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Konstitutsiya mustaqillik yillaridan boshlab davlatning mustahkam huquqiy asoslarini yaratish va fuqarolar huquqlarini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qator muhim qaror va o'zgarishlar bilan belgilanadi. Mustaqillik uchun qo'yilgan shaxdam qadam sifatida e'tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi Konstitutsiya yaratish uchun ham asos bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun komissiya tuzildi. 1991-yil Konstitutsiya loyihasini tayyorlovchi komissiyaning birinchi majlisi o'tkazilib, komissiya a'zolari va muataxassislardan tashkil topgan, 32 kishidan iborat

¹ Project Gutenberg, *The Constitution of the United States of America*,
<https://www.gutenberg.org/dirs/0/5/old/const11h.htm>

ishchi guruh tuzildi va loyiha tayyorlash bo'yicha barcha ishlarni muvofiqlashtirish ularning vazifasi etib belgilandi. 50 nafardan olim, xodimlar va mutaxassislarni o'z ichiga oluvchi 6ta kichik guruh Konstitutsiyaning muqaddimasini, konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquq va burchlari, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi bo'limlarini tayyorlash uchun tashkil etildi. 1991-yil 31-avgustda respublikamizda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng noyabr oyida konstitutsiyasi loyihasining birinchi variant tayyorlandi va u muqaddima 6 bo'lim va 158 ta moddadan iborat edi. Keyinroq, 1992-yil bahorida 149 moddadan iborat ikkinchi variant tayyorlandi.

Loyiha takomillashtirilgandan so'ng konstitutsiyaviy komissiya 1992-yil 7-dekabrda bo'lib o'tgan majlisda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasiga kiritish haqida qaror qabul qildi. 1992-yil 8-dekabr Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasida bo'lib o'tdi. Deputatlar muqaddima, 6 bo'lim, 26 ta bob va 128 ta moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar.

Yangi tahrirdaagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyani yoqlab ovoz berdi. Yangilanish natijasida bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi referendumda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni 1-maydan kuchga kirdi².

O'zbekiston Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni o'zining ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi. Bu borada Konstitutsiyaning asosiy qoidalari xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo'lib, unda har bir fuqaroga teng huquq va imkoniyatlar taqdim etilishi kafolatlanadi. Xususan, Konstitutsiyaning 13-moddasida shaxsning qadr-qimmati oliy qadriyat deb e'lon qilinadi va fuqarolar huquq va erkinliklari davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlaydi. Bu tamoyil fuqarolarning erkin va farovon hayotini qurishda muhim o'rin tutadi. Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan konstitutsiyaviy me'yorlar xalqaro huquq talablari bilan ham uyg'unlashgan. Masalan, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlarga qo'shilgan bo'lib, bu davlatning inson huquqlariga rioya qilish va ularni himoya qilish borasidagi majburiyatini ta'kidlaydi. Konstitutsiyada fuqarolarning yashash huquqi, so'z erkinligi, diniy erkinlik, ta'lim olish huquqlaridan foydalanish huquqlari va shu kabi huquqlari aniq ko'rsatib berilgan. Bu esa inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy asosini mustahkamlaydi. International Human Rights and the Collegiation of Journalists jurnalida, konstitutsiyaning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning, fuqarolik jamiyatlarining, siyosiy institutlarning shakllanishidagi o'rni alohida e'tirof etiladi³.

Tadqiqot davomida empirik tahlil ham amalga oshirilgan bo'lib, unda O'zbekistonda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy yangilanishlarning real ijtimoiy-huquqiy natijalari rasmiy statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi (MSK) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda o'tkazilgan referendumda ovoz

² Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Mualliflar jamoasi. TDYU nashriyoti, 2024. -800b

³ LexisNexis, **Author:** MICHAEL PERKINS. ARTICLE: INTERNATIONAL HUMAN RIGHTS AND THE COLLEGATION OF JOURNALISTS: THE CASE OF COSTA RICA, 4 Comm. L. & Pol'y 59. 2025-11-28

beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan 19 722 809 nafar fuqarolarning yarmidan ko'pi, ya'ni 16 667 097 nafari yoki 84,51 foizi referendumda ishtirok etganligi islohotlarga nisbatan ijtimoiy ishonch darajasining yuqoriligini ko'rsatadi⁴.

III. Natijalar (Results)

O'zbekistonda Konstitutsiyaning yangi tahrirda qabul qilinishi nafaqat huquqiy tizim evolyutsiyasi, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi ijtimoiy-siyosiy bosqichga o'tganini anglatadi. Konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida asosiy urg'u inson qadri, ijtimoiy adolat tamoyillari fuqarolik jamiyati institutlarini mustahamlash hamda davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Bularning isboti sifatida Konstitutsiyamizning 19- moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" degan normalar belgilab qo'yilgan⁵. Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning VII–IX boblari fuqarolarni huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ekologik huquq va erkinliklar aks ettirilgan. Bu bilan davlatimizda insonning qadri qanchalik kuchli ekanligi yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyada "ijtimoiy davlat" tamoyilining mustahkamlanishi natijasida davlatning ijtimoiy majburiyatlari sezilarli kengaydi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, nogironligi bo'lgan shaxslar va yoshlar huquqlarining alohida huquqiy kafolat sifatida qayd etilishi inson kapitalining huquqiy maqomini mustahkamlagan muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bu yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan konstitutsiyaviy ijtimoiy model tushunchasi bilan uyg'un keladi.

Davlat boshqaruvi tizimining ochiqligi va shaffofligining kuchaygani ham yana bir muhim natijalardan biridir. Davlat xizmatlarining ko'pi raqamlashtirilgani, sud hokimiyatida elektron protokollar, video majlislar va masofaviy murojaatlar joriy etilgani fuqarolarning huquqiy tizimga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Bu jarayon huquqiy davlat konsepsiyasining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan boshqaruvning shaffofligi va fuqarolarga yaqinligi bilan bog'liq.

Shuningdek, konstitutsiyaviy yangilanishlar fuqarolik faolligi va huquqiy ongning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini ham qayd etish lozim. So'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati institutlarining faollashgani kuzatilmoqda. Buning ustiga, demokratik tizimlarda so'z erkinligi, fikrlash mustaqilligi va ijtimoiy guruhlarining siyosiy jarayonlarda ishtiroki konstitutsiyaviy tuzumning barqarorligini ta'minlab beradi. O'zbekistonda ham ushbu tamoyillar bosqichma-bosqich kuchayib borayotgani yaqqol namoyon bo'ladi.

IV. Muhokama (and Discussion)

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasi davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning mazmunini tubdan yangilagan hujjat sifatida tahlil

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarori, 01.05.2023 yildagi 1245-son

⁵ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI, <https://lex.uz/docs/>

qilinadi. Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yoʻnalishlari - inson qadri tamoyilining ustuvorligi, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat konsepsiyasini real mexanizmlar bilan mustahkamlashdan iborat boʻlgan. Yangi konstitutsion modelning mazmuni xalqaro ilmiy-huquqiy yondashuvlarda qayd etilgan zamonaviy konstitutsion standartlar bilan uygʻunlik kasb etadi. Xususan, Oʻzbekiston tajribasida ham aynan shu omillar ustuvor yoʻnalish sifatida eʼtirof etilgan. Islohotlar jarayonida davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlari kengaygani, ijtimoiy himoya, taʼlim, sogʻliqni saqlash va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun konstitutsiyaviy kafolatlar kuchaygani mazkur yondashuvning amaliy koʻrinishidir.

Oʻzbekistonda huquqiy ong va fuqarolik faolligining oshishi, raqamli boshqaruv mexanizmlarining kengayishi hamda davlat xizmatlarining ochiqligi zamonaviy konstitutsion tuzumning shakllanishida hal qiluvchi omil boʻlmoqda. Bu jihat ilmiy adabiyotlarda konstitutsiyaviy tuzumning real ishlashini taʼminlaydigan “institutSIONal transformatsiya” deb ataladi. AQShdagi tajribalar ham tahlil qilinganda konstitutsiya matni emas, balki uning amaliyotda qoʻllanishi siyosiy tizim barqarorligini belgilashi taʼkidlanadi⁶.

Shu bilan birga, konstitutsiyaviy yangilanishlar jarayonining baʼzi murakkab jihatlari ham mavjud. Ularning qatoriga huquqiy tizimda yangi mexanizmlarni tatbiq etish jarayonida malakali mutaxassislar yetishmasligi, ayrim normalarning amaliyotga joriy etilish jarayonida huquqiy izoh va qoʻllanma yetishmasligi ham kiradi. Konstitutsion normalar amaliyotda toʻliq ishlashi uchun huquqiy interpretatsiya jarayoni davlat va jamiyat tomonidan birgalikda shakllanishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Oʻzbekistonning yangi konstitutsiyaviy modeli hali toʻliq yakunlangan tizim emas, aksincha – rivojlanish jarayonining faol bosqichidir. Kuchli tomoni shundaki, oʻzgarishlar jamiyat ehtiyojidan kelib chiqmoqda, davlat bilan fuqarolar oʻrtasida muloqot formati kengaymoqda va saylov hamda referendum jarayonlarida xalqning bevosita ishtiroki konstitutsion oʻzgarishlarning legalligi va legitimligini oshirmoqda.

V. Xulosa (Conclusion)

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi nafaqat davlat boshqaruvi va huquqiy tizimning poydevori sifatida, balki inson huquqlari va fuqarolarning erkinliklarini taʼminlovchi muhim huquqiy vosita sifatida ahamiyatga ega. Yangi tahrirdagi konstitutsiya inson qadri tamoyilini ustuvor qilib belgilaydi, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytiradi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv, davlat xizmatlarining ochiqligi va fuqarolarning ijtimoiy faolligi konstitutsiyaning real amaliyotga tatbiq etilishini taʼminlaydi. Oʻzbekiston tajribasi shuni koʻrsatadiki, konstitutsion islohotlar davlat va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni mustahkamlash, erkin, xavfsiz va barqaror jamiyatni shakllantirishning samarali vositasi boʻlib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Oʻzbekistonning konstitutsiyaviy yangilanish tajribasi mamlakatning davlat boshqaruvi, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurilishi yoʻlidagi muhim bosqichi boʻlib, uning amaliy natijalari kelgusi yillarda yanada yorqin koʻrinish olishi kutiladi. Shu sababli yangi Konstitutsiya nafaqat yuridik hujjat, balki erkin va farovon hayotning huquqiy kafolati sifatida eʼtirof etilishi mumkin.

⁶ LexisNexis, **Author:** Anthony Lester QC * The Overseas Trade in the American Bill of Rights. 2025-11-28

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Anthony Lester QC. The Overseas Trade in the American Bill of Rights. LexisNexis, 2025-11-28.
2. International IDEA Institute for Democracy and Electoral Assistance. What Is a Constitution? Principles and Concepts. August 2014.
3. <https://lex.uz/docs/>
4. LexisNexis. MICHAEL PERKINS. International Human Rights and the Collegiation of Journalists: The Case of Costa Rica, 4 Comm. L. & Pol'y 59, 2025-11-28.
5. New Renaissance International Scientific and Practical Conference, Volume 2 | Issue 1. January 2025.
6. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarori, 01.05.2023 yildagi 1245-son.
8. Project Gutenberg. The Constitution of the United States of America.
9. TDYU Nashriyoti. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: darslik / Mualliflar jamoasi. 2024. 800 b.
10. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. Noyabr 2025. 2015 - 2025.
<https://www.constitution.uz/docs/>